

DVIANT XULQ ATVORLI O'QUVCHILARDA ATOM ODATLARNI SHAKLLANTIRISH VA KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

Qodirova Zebo Odilovna

Samarqand viloyati Oqdaryo tuman 19-maktab psixologi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15364516>

Annotatsiya. Ushbu maqolada dviant xulqli o'quvchilarni psixokorreksiyasi va yangi ijobiy atom odatlarni rivojlantirish va shu odatlar tarkibida kasb-hunarga yo'naltirishni yo'lga qo'yish nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: atom odatlar, dviant xulq, psixokorreksiya, irodaviy kuch, psixologik ta'sirlar.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРИВЫЧЕК АТОМА И ПРОФОРИЕНТАЦИЯ У СТУДЕНТОВ С ТРУДНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы психокоррекции учащихся с дивантным поведением и формирования у них новых позитивных привычек.

Ключевые слова: атомные привычки, девиантное поведение, психокоррекция, сила воли, психологические эффекты.

FORMATION OF ATOMIC HABITS AND CAREER GUIDANCE IN STUDENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR

Abstract. This article deals with the psychocorrection of students with deviant behavior and the development of new positive habits.

Keywords: atomic habits, deviant behavior, psychocorrection, willpower, psychological effects.

Og'ishgan xulqni zamonaviy jamiyatning dolzarb muammosi deb atash mumkin.

Dviantlik og'ishgan xulq psixologlar, shifokorlar, pedagoglar, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan doimiy ravishda tadqiq qilinib, jamiyatda sog'lomlashtirish choralari ko'rib kelingan. Og'ishgan xulq mavzusi sohalararo va munozarali xarakterga ega.

O.A.Klayberg og'ishgan xulqni uchta asosiy guruhga ajratadi, salbiy, ijobiy, ijtimoiy xolis. Og'ishgan xulqli o'quvchilarning juda ko'p qismida odatda yomon odatlar shakllangan bo'ladi.

Odat bu-muntazam ravishda aksariyat hollarda avtomatik ravishda takrorlanadigan xatti-harakatlar yoki harakatdir. Jeyms Klir atom odatlar, ya'ni mitti ko'rinishidan oddiy bo'lgan atom odatlar tushunchasini kiritdi.

Atom odatlar-bu katta odatlarning bir qismi bo'lgan kichik odat. Xuddi atomlar molekularlarning kichik qurilish birligi bo'lgani kabi atom odatlari sezilarli natijalarning qurilish bloklari hisoblanadi. Har qanday odatlarni shakllantirishda shaxsdagi ehtiyojlarni hisobga olish lozim. Ehtiyojlar shaxsda stimullar vazifasini o'taydi.

Xulqi og'ishgan odam birdaniga yaxshi odamga aylanib qolishi mushkul. Dviant xulqli o'quvchilarda to'g'ri yo'lga qaytish xohishi mavjud bo'ladi, lekin bu yo'lni tanlashida miya po'stlog'ida chuqur iz qoldirgan odatlar va u tanlagan tizim doimiy ravishda halal berib keladi. "Atom odatlar" to'g'ri yo'lga qaytish, o'sish va to'g'ri kasb-hunar egallash haqidagi fikrlarni shakllantiradi. Dviant xulqli shaxs hayotida kichik-kichik o'zgarishlar har kuni qo'shib borilishi natijasida birinchi navbatda dviatsiyadan qutulish va keying navbatda ijobiy hattoki katta natijalarga ham erishish mumkin bo'ladi.

O'quvchilarni shu kichik muvafaqiyatidan ham rag'batlantirish dastlab ularda tashqi tarafdin bu hech narsa emasdek tutsalarda psixikasida qilgan o'zgarishidan mamnunlik hissi vujudga keladi va ikkinchi kuni shu kichik ijobiy o'zgarish yoniga boshqa bir atom odatni garchi atrofdagilar sezmasa ham qo'shadi. Sekin asta o'quvchida maqsad bor yoki yo'qligini aniqlash lozim bo'ladi.

- Uning hayotdagi asosiy maqsadi nima?
- Uning do'stlari hayotda erishish mumkin bo'lgan qanday maqsadlarni qo'ymoqda. Uning harakatlari shu maqsadga yo'nalganmi?
- U maqsadi yo'lida nimalarni amalga oshirishi kerak?
- U nimalarni odat qilishi maqsadi sari yetaklaydi?

Maqsadlar o'quvchining yo'nalishini belgilaydi. Dviant xulqli o'quvchida maqsadlarni shakllantirish uni kasb-hunarga yo'naltirishni osonlashtiradi. Sportda shunday gap bor-g'oliblarning ham mag'lublarning ham maqsadi bir xil bo'ladi. Oliy ta'limga tayyorlanuvchi abituriyentlarning ham maqsadi bitta. Oily ta'limga muvafaqiyatli test sinovlari topshirish.

Bunda psixolog o'quvchida ketma-ket erishayotgan natijalarni yaxshilanishi lozimligini uning xohish va istaklarini hisobga olgan holda uning ongiga singdirib borishi lozim. Kechagi natijadan bugungisi yaxshiroq va samaraliroq bo'lishi lozim. Agar o'quvchi hunar egallashni maqsad qilgan bo'lsa u holda hunar mahsuli ikkinchi, uchinchi va keyingi martalarda oldingisidan yaxshiroq bo'lishi va samarali bo'lib borishini tizimlashtirish lozim. Natija har gal oldingisidan yaxshiroq.

Odatlarni shakllantirish jarayonini oddiy to'rtta bosqichga bo'lish mumkin: rag'batlantirish, istak hosil bo'lishi, javob, mukofot

1-bosqich rag'batlantirish o'quvchini muayyan xatti-harakatni boshlashga undaydi va istakni hosil qiladi.

2-bosqich istak hosil bo'lishi nazriy ahamiyatga egadir. Bunda o'quvchida biror bir kasb-hunar egallash istagi shakllangani bilan unga qayta rag'bat berilishi, shu istakni amalga oshirish yo'llari ko'rsatilgandagina amaliy natija yoki javob bo'ladi.

3-bosqich reaksiya. Reaksiya muntazam odat bo'lib o'quvchi istaklar natijasida harakat yoki xatti-harakatni boshlaydi. Maqsadi sari ketma ket harakat qiladi. Kitobni birinchi marta o'qib tushunmasligi yoki kasbni birinchi marta qilib ko'rganda bajara olmasligi mumkin, lekin qayta qayta shu odat takrorlanishi kelajakda natija bera boshlaydi.

4-bosqich-mukofot. Natija esa mukofotlanadi. Natija shu kasbni egallash yoki Oliy ta'limga o'qishga kirish bo'lishi mumkin.

Har kuni bittadan odatlarni qo'shib borish va va mustahkamlab borish o'quvchilarda shaxsiy sifatlarni va maqsadi sari bajarayotgan faoliyat turini shakllantirish imkonini berib boraveradi. Odatlarni qoplash formulasini yaratish esa o'quvchida "Hozir qilaman", "Ertaga qilaman" ko'rinishida amalga oshiriladi.

Dviant xulqli o'quvchi xulqidagi va faoliyatidagi kichik-kichik o'zgarishlar vaqt o'tishi bilan sezilarli, ko'zga ko'rinarli o'zgarishni yuzaga keltiradi. Yomon odatlar yaxshi odatlar bilan o'rin almashinadi. Shuni ham unutmasligimiz kerakki odatlar umuman yo'q bo'lib ketmaydi.

Takrorlanishi kamayishi natijasida izlar xiralashadi va yaxshi odat izlari yaxshiroq konsolidatsiyalanadi va dominant bo'lib turadi.

Yaxshi odatlar orqali maqsadga erishilganda insonda katarsis holati yuzaga keladi.

Abituriyent yoki biror kasb egallayotgan shogird o'z faoliyati natijasidan zavqlanadi.

REFERENCES

1. E.G'oziyev "Ontogenez psixologiyasi" 2014 yil
2. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" 2014-yil
3. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazining "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" uslubiy qo'llanmasi. Toshkent 2008-yil
4. Jeyms Klir "Atom odatlar" 2018-yil O'zbek tilidagi nashri 2021-yil